ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Rezyume. Maqolada VII–XIII asrlarda arab grammatik an'anasining rivojlanishi tilshunoslik tarixi kontekstida ko'rib chiqiladi. Unda ilk arab tilshunoslarining maqsad va usullari, til materiali manbalari hamda grammatik nazariya shakllanishida analogiya va ratsional mulohazalarning o'rni tahlil qilinadi. Arab tilshunosligining o'ziga xoslik darajasi va uning yunon falsafiy an'anasi bilan ehtimoliy aloqalari haqidagi munozaralar yoritiladi. Basra va Kufa maktablari faoliyati, al-Xalil ibn Ahmad va Sibavayhning asarlari, shuningdek, tilning tahliliy tavsifidan pedagogik yo'naltirilgan grammatikaga o'tish jarayoniga alohida e'tibor qaratiladi. Arab grammatikasi jamiyatning madaniy, diniy va ta'limiy ehtiyojlariga javoban rivojlangan mustaqil va yaxlit intellektual tizim bo'lganligi haqida xulosa chiqariladi.

Resume. The article examines the development of the Arabic grammatical tradition from the 7th to the 13th centuries within the context of the history of linguistics. It analyzes the goals and methods of early Arabic linguists, the sources of linguistic material, and the role of analogy and rational reasoning in the formation of grammatical theory. The discussion regarding the degree of originality of Arabic linguistics and its possible connections with the Greek philosophical tradition is highlighted. Special attention is paid to the activities of the Basra and Kufa schools, the works of al-Khalil ibn Ahmad and Sibawayh, as well as the transition from an analytical description of language to a pedagogically oriented grammar. It is concluded that Arabic grammar represented an independent and holistic intellectual system that evolved in response to the cultural, religious, and educational needs of society.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JOMIYNING «YUSUF VA ZULAYHO» DOSTONIDA FORSIY O'RIN-JOY YASOVCHI AFFIKSLARINING QO'LLANILISHI

Alimova Zarifaxon Vaxobovna,
Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mamaroziqova Sug'diyona Shuxratjon qizi,
Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Til taraqqiyoti jarayonida turli tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir hamda aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'z yasalishi tizimida fors tilidan kirib kelgan affikslarning o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostoni badiiy tilining muhim xususiyatlaridan biri unda fors tiliga xos leksik birliklar, xususan, o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi so'zlar va affikslarning keng qo'llanilishidir. Bunday birliklar asarda tasvirlangan makon va muhitni yanada aniqroq ifodalash, badiiy tasvirni boyitishga xizmat qiladi.

«Yusuf» qissasining eng qadimgi manbalaridan biri sifatida «Ibtido» kitobi e'tirof etiladi. Mazkur manba miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida shakllangan bo'lib, asarning 37-bobidan boshlab Yusuf hayoti va faoliyatiga oid rivoyatlar bayon etiladi. O'rta Osiyo adabiy muhitida mazkur syujetning dastlabki badiiy talqinlaridan biri Ibn Sino qalamiga mansub «Yusuf» qissasi hisoblanadi. Shoir Durbek ta'kidlashicha: «Eng qadimgi muqaddas kitoblardan

biri bo‘lgan «Tavrot»da ham go‘zal Yusuf haqida gapiriladi»[1]. Nosiriddin binni Burhoniddin Rabg‘uziy ham 1310-yilda yozgan «Qissasul Anbiyo» qissasida Yusuf qissasiga ma’lum darajada o‘rin beradi[2]. Keyingi davrlarda mazkur syujet Sharq mumtoz adabiyotida izchil rivojlanib, yirik adiblar tomonidan badiiy jihatdan mukammallashtirildi. Xususan, Durbek hamda Abdurahmon Jomiy singari yetuk ijodkorlar o‘z asarlarida Yusuf obrazini chuqur badiiy talqin etishga alohida e’tibor qaratdilar.

Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida o‘rin-joy yasovchi affikslarning qo‘llanilishi ahamiyatga molikdir. Tilshunos K. Yusupov fors-tojik tilidan o‘zlashgan o‘rin-joy nomlari haqida alohida to‘xtalib o‘tadi. Olimning qayd etishicha: «O‘zbek xalqi tojik tilidan bir qator so‘zlarni olib ishlatganda o‘zbek tilida qulaylik, ma’no boyligini oshirish hamda shu kabi hollarni nazarda tutgan. Chunonchi, *boloxona* so‘zi o‘zbek tilida ham, tojik tilida joy ma’nosini ifodalashda ko‘p qo‘llaniladi. Ammo bu so‘z tojik tilining mahsuli bo‘lib, *bolo* «tepa», «ust» ma’nosini, *xona* «uy» ma’nosini ifoda etadi. Demak, o‘zbek xalqi uchun «tepada joylashgan uy», «ustki uy» deyishdan ko‘ra *boloxona* so‘zini ishlatish qulaylik, ma’noda aniqlik tug‘diradi[3].

Har qanday yasama so‘z tuzilishi, odatda, ikki asosiy komponentdan iborat bo‘ladi: so‘z yasalish asosi, so‘z yasovchi qo‘shimcha. Ya’ni yasama birlik aynan shu ikki qismning o‘zaro birikishi natijasida hosil bo‘ladi. Til tizimida leksemalar boshqa tillardan o‘zlashgani kabi, ayrim affikslar ham o‘zga tillardan kirib kelishi mumkin. Masalan, **qabulxona** so‘zi tarkibiy jihatdan tahlil qilinganda, uning **qabul** asosi ham, **-xona** qo‘shimchasi ham turkiy tillarga xos bo‘lmay, boshqa til manbalaridan o‘zlashgan birliklar ekanligi kuzatiladi. **Qabul** so‘zining asl kelib chiqishi arabcha bo‘lib, (قبل) **قَبُولٌ – قَبِلَ** [4] so‘zidan olingan va «qabul qilish», «rozi bo‘lish» ma’nolarini anglatadi. ***-xona*** qo‘shimchasi esa fors tilidagi **خانه** [xone] so‘zidan olingan bo‘lib «turar joy», «makon» [5] degan ma’nolarni anglatadi. Ikki qism birgalikda qabul qilish, rozi bo‘lish joyi, makoni degan ma’noni anglatib keladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘ati (leksikasi) tarkibida asosan quyidagi affikslar o‘rin-joy otlarini yasash uchun xizmat qiladi, ularning ba’zilari esa fors-tojik tilidan kirib kelgan:

№	O‘rin-joy otini yasovchi affikslar:	Qaysi tilga mansubligi:	Misollar:
	-loq	turkiy	*toshloq*
	-zor	forsiy	*gulzor, sabzazor*
	-iston	forsiy	*guliston, bog‘iston*
	-xona	forsiy	*kutubxona*
	-goh	forsiy	*sayilgoh, taxtgoh*
	-lik	turkiy	*jarlik*

Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida ham mazkur affikslarning qo‘llanish holatlari uchrab, ular asarning morfologik imkoniyatlarini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Chekib kayvong’a bosh ayvoni johi,
Jahonda Misr mulki ***taxtgohi*** [6].

Bu baytda Yusufning yuksak martabasi tasvirlanadi. Unda aytilishicha, u olamning bosh ayvonidek joylashgan, ya’ni eng yuqori maqomga ega bo‘lgan. Misr mamlakati esa unga taxtgoh, ya’ni hukmronlik qiladigan markaz, davlatning boshqaruv o‘rni bo‘lib xizmat qiladi.

Taxtgoh (تختگاه) ikki qismdan tashkil topgan forscha qo‘shma so‘z hisoblanadi. **Taxt** (تخت) podshoh, shoh o‘tiradigan o‘rindiq; **-goh (گاه)** qo‘shimchasi asli fors-tojik tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tarkibidagina bo‘lib, o‘rin- joy otini yasash uchun xizmat qiladigan qo‘shimchadir. Forscha lug‘atlarda esa taxtgoh (تختگاه) so‘zi «boshqaruv markazi» [7]ma’nosini anglatishi qayd etilgan.

Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida ham **taxtgoh** leksemasi ishtirokida misollar uchraydi va «poytaxt», «boshqaruv markazi» ma’nosini anglatadi:

[1] Дурбек. Юсуф ва Зулайҳо. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1959. – Б. 6.
[2] Дурбек. Кўрсатилган манба. – Б. 6.
[3] Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро алоқаси: Ф.ф.н.дисс.... – Тошкент, 1957. – Б. 22.
[4] Баранов Х. К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1985. – С. 619.
[5] Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том. – Москва: Русский язык, 1983. – С. 535.
[6] Abdurahmon Jomiy. Yusuf va Zulayho. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1974. – B.12.
[7] Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. II том. – Москва: Русский язык, 1983. – С. 357.

Hamul Balxkim, qildi Hushangshoh,
Jahondin guzin aylabon ***taxtgoh***[1].

«Yusuf va Zulayho» dostonida **-goh** affiksi ishtirokida ko‘plab o‘rin-joy nomlari mavjudligi aniqlandi:

Bu ***navbatgohdakim****, yo‘q hech fursat,*
Qoqar navbat bila har kimsa navbat. (Yusuf va Zulayho, 13-bet)

Nasriy bayon: *bu navbat joyida (ya’ni navbat turadigan makonda) biror lahza bo‘shlik bo‘lmaydi. Har kimning navbati kelishi bilan navbat almashib turadi.*

«**Navbatgoh**» (نوبتگاه) fors tilidan o‘zlashgan so‘z hisoblanib, ***navbat*** (نوبت) soziga ***-goh*** (گاه) o‘rin-joy yasovchi affiks qo‘shilgan.

نوبت [noubat] so‘zi *vaqt, davr, payt, almashinuv* (smena) va biron ishni ketma-ket bajarish tartibini bildiradi (Персидско-русский словарь, I том. 669).

Yuqorida aytib o‘tilgandek, *-goh* (گاه) qo‘shimchasi saksoninchi yillarga qadar fors-tojik tillaridan o‘zlashgan sanoqchi so‘zlar tarkibidagina bo‘lgan, ya’ni o‘zbek tilining o‘zida yangi so‘zlar yasash uchun qo‘llanilmagan. Bu o‘zlashma so‘zlarning ayrimlarining *-go‘h* qo‘shimchasidan qolgan qismi o‘zbek tilida qo‘llanmaydi (o‘zbek tilida yo‘q): *dastgoh, dargoh* kabi. Shuning o‘ziyoq bu so‘zlarning aynan o‘zbek tilida yasalmaganligidan dalolat beradi.[2]

Xalilulloh ***gulzorig‘a*** *nogoh,*
Ochildi bir guli marg’ubi dilxoh. (Yusuf va Zulayho, 14-bet)

Nasriy bayon: *Xalilulloh (Ibrohim payg‘ambar) kirib borgan gulzorda kutilmaganda (nogoh) ko‘ngilga yoqadigan, juda chiroyli bir gul ochildi.*

Gulzor (**گلزار**) fors (fors-tojik) tilidan kirgan so‘z hisoblanib, ikki qismdan tashkil topgan: **gul** (**گل**) «gul», «giyohning chiroyli ochilgani» ma’nosini ifodalaydi, **-zor** (**زار**) esa fors tilidagi o‘rin-joy yasovchi qo‘shimchadir. گلزار so‘zi esa «gullar ko‘p o‘sadigan joy», «gullar bilan to‘la bog‘», «gulbog‘» degan ma’noni bildiradi.

Ikki yosh aro kirganda nogoh,
Lahad bo‘ldi onosig‘a ***vatangoh***
(Yusuf va Zulayho, 15-bet).

Ya’ni: *kutilmagan holda ikki yoshning orasiga ayriliq kirdi, natijada onaning qabri shu kishiga vatani kabi yagona panoh va makon bo‘lib qoldi.*

Vatan (وطن) + **-goh** (گاه) = **vatangoh** (وطنگاه)

«Vatan» arabcha kelib chiqishli so‘z bo‘lib «istiqomat qiladigan» ma’nosini bildiradi[3]. -goh (اگاه) qo‘shimchasi esa forsiy affiksdir. Bu asos va qo‘shimchalar birgalikda «istiqomat qiladigan yer» deb tarjima qilinadi.

Yiborgil oni ***xilvatgohim*** *ichra,*
Tutay jondek dili ogohim ichra (Yusuf va Zulayho, 15-bet)

Nasriy bayon: *Uni mening xilvatgohimga yuboring, men uni jonimday aziz ko‘rib, ogoh (ya’ni hushyor, hushdan) dilimning ichida asrayin*.

Xilvatgoh (خلوتگاه) fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga kirgan yasalma so‘z hisoblanadi. **Xilvat** (خلوت) «yolg‘izlik», «yashirin joy», «tinchiq joy», «xoli joy» ma’nosini bildiradi. Bu so‘z adabiy matnlarda ko‘pincha «yashirin uchrashuv joyi», «osuda makon», «sokin qabulxona» ma’nolarida qo‘llanadi. Forsiy o‘rin-joy affiksini olib, «maxfiy suhbat joyi», «ichki huzur topiladigan xona, koshona» ma’nolarini ifoda etadi.

Tomoshagohi *Yusuf sori yurdi,*
Bori o‘g‘lonlaridin yuz evurdi. (Yusuf va Zulayho, 17-bet).

Ya’ni: *Yusufni ko‘rish uchun ajratilgan tomosha joyi tomon yo‘l oldi va u yerda turgan barcha o‘g‘lonlardan yuzini burib, ularga e’tibor bermadi.*

Bu baytdagi «tomoshagoh» so‘zi fors tilidan kirib kelgan, ammo fors tilida «tamosho» (تماشا) tarzida yoziladi.

H.Jamolxonovning ta’kidlashicha, tovushlarning o‘rin almashinuvi metateza bo‘lib, bu hodisa ko‘proq jonli so‘zlashuvga, ayniqsa, shevalarga xos bo‘lib, adabiy tilda kam uchraydi: *tuproq* > *turpoq* (Toshkent shevasida), *daryo*>*dayro* (qipchoq lahjasi shevalarida), *to‘g‘ramoq* > *to‘rg‘amoq* (ayrim shevalarda) kabi. O‘rin almashinuviga uchragan tovushlar so‘z tarkibida bir-biriga yaqin yoki uzoq joylashgan bo‘lishi mumkin, shunga ko‘ra metatezaning ikki turi farqlanadi: a) kontakt metateza – yonma-yon joylashgan tovushlarning o‘rin almashinuvi: *tuproq* > *turpoq* (pr > rp), *ahvol* > *avhol* (hv > vh) kabi.

b) distant metateza – bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o‘rin almashinuvi: *aylanayin* > *aynalayin* (bunda ikkinchi bo‘g‘in boshidagi «1» bilan uchinchi bo‘g‘in boshidagi «n» tovushlari orasida «a» unlisi bor). Tarkibida metateza hodisasi yuz bergan ayrim so‘zlar hozirgi adabiy tilda me’yor darajasiga ko‘tarilgan: yog’mir (etimologik shakli) > yomg‘ir (hozirgi adabiy tildagi shakli) kabi[4]. *Tomosha* > *tamosho* so‘zi ham distant metatezaga yaqqol misol bo‘ladi.

Ki, husni keldi ***bog’istoni*** *jannat,*
Qadidur onda butgin naxli Rahmat (Yusuf va Zulayho, 18-bet)

[1] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B.185.
[2] Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B. 92.
[3] Баранов Х. К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык. – 1985. – С. 897.
4 Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 76-77.

Bu baytda aytilishicha, Yusufning husni va go‘zalligi jannatning bog‘idek edi, ya’ni uning jamoli jannat bog‘lariga qiyos qilinmoqda. Shuningdek, bu go‘zallik ichida rahmat daraxti kabi ulug‘ bir qomat ham mavjuddir, ya’ni Yusufning qaddi-qomati rahmat, baraka timsoli bo‘lgan daraxtga o‘xshatilmoqda.

«Bog‘iston» so‘zi fors-tojik tilidan kirib kelgan. Sharq adabiyotida keng ishlatilgan, makon bildiruvchi ko‘plab so‘zlar singari *bog‘iston* ham asl ildizi forscha bo‘lgan birlikdir.

Bog‘ (باغ) + **-iston** (ستان).

Bog‘ forscha «gulzor», «ekinli joy», «yashil hudud» ma’nosidagi so‘z bo‘lib, -iston fors tilidagi o‘rin-joy yasovchi affiks hisoblanadi, «makon», «yer», «mamlakat» ma’nolarini hosil qiladi hamda «bog‘lar joyi», «keng bog‘li makon» kabi ma’noni yaratadi. «**Bog‘iston**» (**باغستان**) «*bog‘lar bilan to‘la joy», «gulzor-makon»* demakdir. Yusuf va Zulayho dostonida bu so‘z odatda jannatmonand makon, go‘zal manzillar tasvirida ishlatiladi.

Ko‘rungon xollari har sori onda,
*Erur hindu bachalar **gulsitonda*** (Yusuf va Zulayho, 19-bet).

Nasriy bayon: *Uning (Zulayhoning yoki baytda kim nazarda tutilgan bo‘lsa) badanidagi har bir hol (go‘zallik belgisi) qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda go‘yo hind bolalari kabi qora dog‘chalar, ya’ni xollar gulzor ichida ko‘ringandek jilvalanadi* (shaxsiy tabdil).

«**Gulsiton**» (گلستان) fors tilidan kirgan so‘zdir. Fors-tojik tilida -**siton** (ستان) tarzida ifodalanib, joy, makon ma’nosini bildiruvchi ushbu qo‘shimcha o‘zbek tilida -iston shaklida ifodalanadi.

Bu o‘rin-joy yasovchi klassik forscha affiksdir. «Gulsiton» (گلستان) «gullar joyi», «gulzor», «gullar o‘sadigan maskan» degan ma’noni ifodalaydi, joy nomi yasaydi, makon bildiradi, badiiy matnda go‘zallik, rang-baranglik va nafosat timsoli sifatida ishlatiladi.

Abdurahmon Jomiyning dostonida o‘rin-joy nomlarini yasashda –goh, –iston, –zor, –xona kabi fors-tojik affikslar keng qo‘llanilgan:

a) bu affikslar asos va qo‘shimchalar orqali so‘zning makon, joy yoki badiiy obrazni ifodalash funksiyasini bajaradi.

b) ba’zi so‘zlar (masalan, *qabulxona*, *taxtgoh*, *gulzor*, *bog‘iston*, *gulsiton*) tarkibiy jihatdan arab-fors manbalaridan o‘zlashgan bo‘lib, ular orqali doston matnida stilistik rang-baranglik yaratiladi.

c) hozirgi o‘zbek tilida ushbu affikslar asosan tarixiy shakllangan leksik birliklar tarkibida saqlanib qolgan bo‘lib, yangi so‘z yasashda kamroq qo‘llaniladi.

Xulosa shuki, fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan **–goh, –iston, –zor** kabi o‘rin-joy yasovchi affikslar tilimiz leksik tizimining boyishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu affikslar asosan tarixiy taraqqiyot jarayonida, xususan, fors-tojik va o‘zbek tillari o‘rtasidagi uzoq davom etgan madaniy, adabiy, ijtimoiy aloqalar natijasida o‘zlashgan. Natijada ular o‘zbek tilida ma’lum darajada faol qo‘llanilib, joy, makon, hudud yoki muayyan faoliyat amalga oshiriladigan muhitni ifodalovchi so‘zlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, mazkur affikslarning aksariyati hozirgi zamon o‘zbek tilida yangi so‘z yasashdan ko‘ra, tarixan shakllangan leksik birliklar tarkibida saqlanib qolganligi bilan xarakterlanadi. Demak, fors tilidan kirib kelgan *–goh, –iston, –zor* kabi o‘rin-joy yasovchi affikslarni o‘rganish o‘zbek tilining tarixiy rivoji, so‘z yasalish jarayonlari hamda tilning boshqa tillar bilan aloqalarini chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Mazkur maqolada Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostoni tilida fors tilidan kirib kelgan o‘rin-joy yasovchi affikslarning qo‘llanilishi tahlil qilindi. Maqolada yasama so‘z tuzilishi, so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘rganildi. Masalan, *qabulxona*, *taxtgoh*, *gulzor*, *bog‘iston*, *gulsiton* kabi so‘zlar asos va qo‘shimchalarning o‘zaro birikishi orqali hosil bo‘lib, makon, joy va badiiy obrazni ifodalaydi. Forscha affikslar -goh, -iston, -zor va -xona o‘zbek tiliga tarixiy madaniy va adabiy aloqalar orqali kirib kelgan. Ushbu birliklar doston matnida stilistik rang-baranglik yaratadi va o‘zbek tilining leksik tizimining boyishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu affikslar hozirgi o‘zbek tilida yangi so‘z yasashdan ko‘ra, tarixiy shakllangan leksik birliklar tarkibida barqarorlashgan.

Resume. This article analyzes the use of locative (place-forming) affixes borrowed from Persian in the language of Abdurahmon Jomi’s *«Yusuf and Zulayho»*. The study examines the structure of derived words, the bases of word formation, and derivational affixes. Words such as *qabulxona*, *taxtgoh*, *gulzor*, *bog‘iston*, and *gulsiton* are formed through the combination of lexical bases and affixes, expressing spatial meanings and contributing to the creation of artistic imagery. Persian affixes such as *-goh*, *-iston*, *-zor*, and *-xona* entered the Uzbek language through historical, cultural, and literary interactions. These units enhance stylistic diversity in the text and play a significant role in enriching the lexical system of the Uzbek language. The results of the study indicate that these affixes are not highly productive in forming new words in modern Uzbek; rather, they have become stabilized within historically established lexical units.

Резюме. В данной статье проанализировано использование заимствованных из персидского языка аффиксов, обозначающих место, в поэме Абдурахмона Джомий «Юсуф и Зулейха». В работе исследована структура словообразования, включая основу слова и словообразующий суффикс. Например, слова *qabulxona*, *taxtgoh*, *gulzor*, *bog‘iston*, *gulsiton* формируются через сочетание основы и суффикса и выражают место, пространство и художественный образ. Персидские аффиксы -goh, -iston, -zor и -xona проникли в узбекский язык благодаря историческим культурным и литературным контактам. Эти единицы создают стилистическое разнообразие текста поэмы и играют важную роль в обогащении лексической системы узбекского языка. Результаты исследования показывают, что эти аффиксы в современном узбекском языке закрепились как исторически сформированные лексические единицы и используются преимущественно в составе готовых слов, а не для образования новых.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING «DEVONY LUG‘OTI-T-TURK» ASARIDA KELTIRILGAN MAQOLLARDAGI SO‘ZLARNING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

To‘ychiyeva Zulayxo Hamroqo‘lovna,
Guliston davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Yerjanova Saule Baymurzayevna,
Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti,
filologiya fanlari doktori

Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. «Maqol» atamasi arabcha ***qavlun – gapirmoq, aytmoq***, tojik tilida ***zarbulmasal***, rus tilida ***poslovitsa*** shaklida qo‘llaniladi. O‘zbek xalq maqollari tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida maqollar alohida o‘rin tutadi, chunki ular til boyligi, tarixiy qatlamlilik va madaniy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga ular o‘z tabiatiga ko‘ra, qisqa, esda qolarli iboralar bo‘lib, ular umumiy haqiqatlarni yoki oddiy aql-idrok va tajribaga asoslangan maslahatlarni ifodalaydi.

«Devonu lig‘oti-t-turk» asaridagi maqollar butun turkiy xalqlarning ma’naviy-madaniy merosi ekanligini e’tiborga olgan holda bu mavzuni chuqurroq tadqiq etish lozim. O‘quvchining ma’naviy boyliklarini yanada ko‘paytirish, vatanimiz va dunyo xalqlari badiiy ijodining eng yaxshi namunalari asosida yosh avlodni g‘oyaviy-estetik ruhda tarbiyalashda maqollarning roli va ahamiyati juda katta.

Mahmud Koshg‘ariyning ijodiy merosi O‘zbekistonda ham keng o‘rganib kelinmoqda. Uning hayoti, adabiy, ilmiy faoliyati qator monografiyalar, ilmiy maqolalarda yoritilgan. Jahon tilshunosligida A.M.Shcherbak, N.A.Baskakov, turk tilshunosligida B.Atalay, A.Najip kabi olimlar Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘oti-t-turk» asarini o‘rganganlar.

Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va ijodi o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Xususan, arab tilining bilimdoni, yirik tilshunos olim prof. S.Mutallibov «Devonu lug‘oti-t-turk» asaridagi ko‘pma’noli so‘zlar haqida «Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk» asarida «Omonim va